

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Tabiiy fanlar fakulteti

“O'zbekiston geografiyasi” fanidan

REFERAT

**MAVZU: Kogon tumanining tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik
tavsifi**

Bajardi:

Kamolova Ozoda

Buxoro-2015

Kogon tumanining tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik tavsifi

REJA:

1. Kogon tumanining tashkil topish tarixi
2. Kogon tumanining tabiiy geografik tavsifi
3. Kogon tumanining ijtimoiy-iqtisodiy geografik tavsifi

Kogon tumani viloyat markazi qadimiy Buxoro shahrining janubiy qismida joylashgan bo'lib, Kogon tumani viloyatning Buxoro tumani, shimolda qisqa masofada Vobkent tumani hamda shimoli-sharqda Amu-Buxoro mashina kanalining o'zani orqali Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan chegaradosh. Tuman sharkdan g'arbgacha 38 kilometr, shimoldan janubgacha esa 45 kilometrgacha cho'zilgan. Kogon tuman markazi Kogon-Qarshi, Kogon-Qiziltepa magisrtal yo'li bilan bog`langan. "Buxoro" aeroporti tumandan 8 km uzoqlikdagi masofada joylashgan.

Kogon tumani 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan. Maydoni 0,50 ming km. kv.

Tuman tarixi. 18-asr boshlarigacha tuman qishloqlarida yashovchi aholining turmushi nihoyatda achinarli bo'lgan. Chuqrko'l, Jomard, Xonzi, Siyozi bolo, Tutikunda, Beglar, O'bacho'li, Po'lotchi, Sarijo'ymozor, Saroy, O'rtacho'l kishloklari Xargo'sh kanalidan suv ichgan. Qishloqlar atrofi ko'l, chakalakzorlar, tashlandiq yerlar bo'lgan. Shuning uchun bu qishloqlarning axolisi dehqonchilikdan ko'ra ko'proq chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Chorchinor, Katta Orgun, Siyozi poyon, Chorbog`kendi qishloqlarining aholisi esa suvg'a yaqin bo'lganliklari uchun dehqonchilik qilganlar. Mir-Kulol, Oynasoz, Po'lotchi, Eloch, Tumroq, Perasta, Degrez, Nishovur qishloqlarida mayda hunarmandchilik ayniqsa

keng rivoj topgan. Ular temirchilik, kulolchilik, oynasozlik, qozon yasash bilan shug`ullanganlar. Qishloqlarning nomlari ham shundan kelib chiqqan.

1926 yilda Buxoro viloyatining janubida Kogon tumani tashkil etilgan. O'sha vaqtida tuman tarkibida sakkizta qishloq va bitta posyolka bo'lган. Tumanning ma'muriy markazi qilib, Kogon shahri belgilangan.

Kogon tumani tashkil topgan dastlabki yillarda tumanda 50 dan ortik qishoq xo'jalik artellari tuzilgan bo'lib, bu artellar 1930 yilda boshlab jamoa xo'jaliklariga aylantirilgan. Kogonda 1934-37 yillarda xo'jaliklar yiriklashtirilgan. Tumandagi birinchi o'rta maktab 1928 yilning aprel oyida Qasri Orifon qishlog`ida pishiqlikdan qurilgan. Maktab binosining qurilishida Bahouddin Naqshband ziyoratgohida o'tkazilgan gulisurx saylida to'plangan xayriya pulidan foydalilanilgan.

1936 yilda tuman pilla qabul qilish idorasi tashkil etildi. 1961 yilda tuman hududida parrandachilikni rivojlantirish maqsadida Buxoro parrandachilik fabrikasi tashkil qilindi. Kogon tumani tez orada qishloq xo'jaligi, qurilish va oziq-ovqat sanoatlarining viloyatdagi yirik markaziga aylandi.

Bu orada chor hukumati davrida asos solingan paxta tozalash zavodi qayta qurildi va kengaytirildi. Donni qayta ishlaydigan kombinat va non zavodlari qurildi. Tumanda uning yaqin atrofida keng ko'lamda qurilish ishlari amalga oshirilayotganligi tufayli qurilish materiallari zavodlari va ko'plab qurilish tashkilotlari tashkil etildi.

O'tgan asrning 60-80 yillarida tumanning hozirgi iqtisodiy tuzilmasi asosan shakllanib bo'lib, korxonalar ishlay boshlagan.

90-yillarda esa mamalakatimiz mustaqillikga erishgandan so'ng kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka asos solindi va keng miqyosda bu jarayon rivojlanmoqda.

Dunyoda shunday ulug` zotlar o'tganki, sharofatidan tug'ilib o'sgan yerlari muborak qadamjolarga aylanib qolgan. Kogon ana shunday qutlug` ziyoratgoh, olloh nazari tushgan qutlug` zamindir. Ulug ajdodimiz Said Muhammad Bahouddin ibn Sayyid Jaloliddin Naqshband Kogon zaminida, ya'ni tumanning

Qasri Orifon qishlog`ida hijriy 718 (milodiy 1318 yil) yilda tavallud topganlar. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning tashabbuslari bilan 2003 yilda hazrat Bahouddin Naqshband ziyoratgohida keng qo`lamdagi ta'mirlash ishari olib borilib, qayta obodonlashtirildi.

Shuningdek, bu zaminda hazrat Bahouddin Naqshbandning ustozlari Sayid Mir Kulol hazratlarining qabrlari joylashgan ziyoratgoh qayta ta'mirlanib obodonlashtirildi.

Aholisi 65,7 ming kishi (2014 y.). Viloyat aholisining 10% shu tumanda yashaydi. Kogon shahrida 57,1 ming kishi yashaydi. Tumanda 9 qishloq fuqarolar yig`ini (Beklar, Sariyon, Bahouddin Naqshband, Kogon, Tutikunda, Siyozipoyon, Xo`ja Yakshanba, Yangi Hayot, O`bacho`li) bor. Markazi — Kogon shahri. Mahalla fuqarolar yig`inlari soni 11 ta. Aholisi asosan o`zbeklar (92,5%), shuningdek, turkman, tojik, qozoq, rus, tatar, ukrain va boshqalar millat vakillari ham yashaydi. Aholi zichligi 1 km² ga o`rtacha 106,8 kishi.

Tuman mehnat resurslarining 72,7 foizi faol, 27,3 foizi nofaol aholi hisoblanadi.

Tuman relefi tekislikdan iborat. Yer yuzasining o`rtacha balandligi 222 m. Quyimozor platosining eng baland joyi 252 m (Olchin tepaligi), Kogon shahridan janubidagi pastqam joylarning balandligi 215 m gacha (Kunjako`l pastqamligi).

Geologiyasi. Tuman hududi asosan to`rtlamchi davr yotqiziqlari bilan qoplangan. Hududining asosiy qismini akkumlyativ yuzalarning turon plitasi subaerol-delta zonasining golosten yoshidagi baland subgorizontal balandliklari hamda ozroq qismini ya`ni sharqi va janubini golosten yoshidagi baland subgorizontal yassi balandliklari tashkil etadi.

Seysmik jihatdan 8 balli zilzila yuz beradigan seysmik rayonga kiradi, tuproq zillasida tebranish tezlanishi 351-400 sm²/sek.

Tuman o`rni subtropik kenglikda va dengiz satxidan 222 metr balandlikda bo`lib, relefi tekislik. Kunduzi quyosh gorizontdan balandda turishi bilan farqlanadi. Shu sababli iqlimi quruq bo`lib, kun davomida havo harorati keskin o`zgarib turadi. Iqlimi kontinental.

Yillik o'rtacha harorat 15° , yanvar oyining o'rtacha harorati 0° , iyul oyining o'rtacha harorati 29° . Eng past harorat -25° bo'lib yanvar oyida, Eng yuqori harorat $+46^{\circ}$ iyulda kuzatiladi. Vegetastiya davri 214 kun. Yilning o'rtacha havo harorati $15,1^{\circ}$ minimal xarorati 25 gradus, eng yukori xarorati 45 gradusdan iborat. (Ayrim manbalarda yanvarning o'rtacha harorati $+0,7^{\circ}\text{S}$, eng issiq oy – iyunning o'rtacha harorati $+28,2^{\circ}\text{S}$, qishdagi eng past absolyut havo harorati $-28,0^{\circ}\text{S}$, yozda eng balandi $+42^{\circ}\text{S}$ deb ko'rsatilgan).

Tuman hududi yillik yog'in miqdoriga ko'ra viloyat hududi rayonlashtirilganda eng ko'p yog'in tushadigan joy hisoblanadi (140-160 mm). Yiliga o'rtacha 125—140 mm yog'in tushadi. Yog'inning ko'p qismi qish va bahorda yog`adi. Tumanning yillik bulutlik darajasi 3,8 ballga, minimal ko'rsatkich esa 1,5 ballga teng. Yil davomida ochiq quyoshli kunlar 157 kun bo'lib, yillik o'rtacha yog'in 125 mm ni tashkil etadi. Tumanli kunlar kam bo'ladi. Yil davomida 11 kundan oshmaydi, bu ham kish fasliga to'g'ri keladi.

Yil davomida o'rtacha shamol tezligi 2 m/sek.dan (sentyabr oyi) 3,5 m/sek.gacha (mart oyi) o'zgaradi. Yilning o'rtacha shamol tezligi 2,4 m/sek.ga teng. Kuchli shamol – 15 m/sek.ga teng bo'lib, changli bo'ronlar esa kamdan–kam bir yilda 6-7 marta esadi. Shamolning asosiy esish yo'nalishi sharqdan g'arbga va shimoldan janubga tomonga yo'nalgan.

Viloyat hududi agroiqlimiy rayonlashtirilganda Qizilqum, Quyi Zarafshon hamda O'rta Zarafshon okruglariga bo'linadi. Tuman hududi Quyi Zarafshon okrugiga to'g'ri keladi, okrugning o'zi 2 rayonlar guruhiga - rayonlarning Quyi Zarafshon guruhi va rayonlarning Sandiqli guruhiga ajratiladi. Kogon tumani birinchi rayonlar guruhiga kiritiladi.

Tuman Amu-Buxoro mashina kanali orqali suv bilan ta'minlanadi. Kanalning 10 km qismi tuman hududining shimoli-sharqiy chegarasidan o'tadi. Tuman hududidagi sug`oriladigan yerlar Buxoro viloyati irrigastiya tizimidagi Amu-Buxoro havzasi bilan ta'minlash boshqarmasi xizmat ko'rsatayotgan hududlarga kiradi. Quyimozor suv omboridan boshlangan kanalning bir qismi tuman hududini janubidan kesib o'tadi. Unda Quyimozor nasos stanstiyasi bor.

Cho'l zonasida qorako'lchilik bilan bog`liq chorva mollarining suv ta'minoti sizot va artezian quduqlar suvi yordamida amalga oshiriladi. Tumanning sug`oriladigan yerlari Buxoro vohasiga tegishli bo'lib, u joylarda ko'p tarmoqli zovurlar sistemasi barpo qilingan. Ortiqcha suvlar zovurlar Parallel irrigastiya kollektori (1991 yil foydalanishga topshirilgan, uzunligi 155 km, loyihaviy o'tkazish quvvati $74 \text{ m}^3/\text{c.}$) orqali janubga — Dengizko'lga (Parallel kollektori 1967 yil foydalanishga topshirilgan, uzunligi 126,4 km bo'lgan, loyihaviy o'tkazish quvvati $55 \text{ m}^3/\text{c.}$ Bo'lgan Dengizko'l tashlamasiga qo'shiladi) yo'naltirilgan .

Tuprog'i asosan sug`oriladigan o'tloqi tuproq bo'lib, yarim mustahkamlangan va mustahkamlanmagan qumlar, sho'rxoklar ham uchraydi. Tuman bo'yicha sug`oriladigan tuproqlarning tavsifini tahlil qiladigan bo'lsak bu tuproqlarning 34.7 % i kuchsiz, 45.1 % i o'rtacha, 13.6 % i kuchli sho'rangan. 6.6 % i sho'rxoklardir. Tuman hududidagi sug`oriladigan tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra og`ir qumoqli va loyli (18.3 %), o'rtal qumoqli (36.9 %), yengil qumoqli (28.9 %) va qumoqli-qumli (15.9 %) tuproqlarga bo'linadi.

Sug`oriladigan yerlarda begona o'tlarning yuzdan ortiq turi uchraydi. Cho'l zonasida gipsli toshloq yerlarda achchiqmiya, gulsapsar, shuvoq, astragal, tuyatovon, karrak, isiriq keng tarqalgan. Sho'rxok yerlarda sho'rajriq, yulg'un, qamish va boshqalar mavjud. Qumoq joylarda yaltirbosh, arpag`on, iloq va cho'lyalpiz kabilar o'sadi.

Geobotanik rayonlashtirilganda viloyatiimz hududi Osiyo cho'l geobotanik o'lkaga kiritiladi. Bu o'lka hududida Turon va viloyat hududining 95% ini egalaydigan Old Osiyo provinstiyalar guruhlari ajratiladi. O'z navbatida Old Osiyo provinstiyalar guruhi Kaspiy orti va Janubiy Turkiston provinstiyalariga bo'linadi. Kogon tumani hududi Kaspiy orti provinstiyasining Qoraqum podprovinstiyasiga, Janubiy Qizilqum okrugiga kiradi. Tuman hududida asosan vohalarning madaniy o'simliklari va shuvoqli cho'llarga xos o'simliklar, qisman siyraklashgan psammofit butazor o'simlikli cho'llarga xos o'simliklar tarqalgan.

Kogon tumani hududi antropogen, qumli, gipsli, sho'rxokli cho'llar landshaftlarda quyidagi hayvonlar tarqalgan: yovvoyi hayvonlardan bo'ri, tulki,

chiyabo'ri, jayron va jayra, qushlardan so'fito'rg'ay, chumchuq, zarg`aldoq, sudralib yuruvchilardan gekkon kaltakesak, toshbaqa, sariq ilon, echkemar; kemiruvchilardan ko'rsichqon, kichik qo'shoyoq, qumsichqon, tipratikan, kalamush va boshqalar uchraydi.

Hududda antropogen landshaftlar (sug`oriladigan yerlar va seliteb hududlar), cho'l landshaftlari (qumli, gipsli, sho'rxoksimon) ajratiladi. Qumli cho'l landshaftlaridan quyidagilar tuman hududida uchraydi:

- Qumli cho'l tuproqlar va qumlarda cherkez o'simligi jamolari
- Qumli cho'l tuproqlar va qumlangan qo'ng'ir tusli sur tuproqlarda juzg`un, boyalich, partek, singren o'simliklari jamoalari
- Qumlar va qumli cho'l tuproqlarda oq saksovul, juzg`un, oq shuvoq o'simliklari jamoalari
- Qumli cho'l tuproqlarda oq saksovul, qora saksovul, oq shuvoq o'simliklari jamoalari
- Qumlarda juzg`un, quyonsuyak o'simliklari jamoalari

Gipsli cho'l landshaflaridan quyidagilar uchraydi:

- Tipik qo'ng'ir tusli sur tuproqlar va qumlarda to'zgan shuvoq, keyrovuq, boyalich o'simliklari jamoalari
- Qumlangan qo'ng'ir tusli sur tuproqlarda partek, singren, jung`or gulsapsari o'simliklari jamoalari

Sho'rxoksimon cho'llar landshaftlaridan tipik sho'rxoklarda dag`al junli yulg`un, qorabaroq, bir yillik sho'ra, sarsazan o'simliklari jamoalari

Tuman hududi tabiiy geografik rayonlashtirishga ko'ra Quyi Zarafshon okrugida joylashgan. Tumanning shimoliy qismi bu okrugning Buxoro-Qorako'l tabiiy geografik rayoniga, janubiy qismi Sandiqliqum tabiiy geografik rayoniga kiradi.

Xo'jaligi. Kogon tumanida sanoatning yengil, oziq-ovqat, qurilish, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmoqlari mavjud. Tumanning viloyat iqtisodiyotida salmog`i quyidagicha: Viloyat sanoat mahsulotlarining 9% ini, qishloq xo'jalik mahsulotlarining 7.6% ini beradi.

Sanoati. Tumanda paxta tozalash, tikuv-trikotaj yog`, g`isht zavodlari, parrandachilik fabrikasi, 2 ta avtokorxona mavjud. Quyimozorda yig`ma-temir beton zavodi ishlab turibdi. Qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan agrosanoat tarmoklari, 150 dan ziyod xususiy firma va korxona faoliyat ko`rsatmokda. Sanoat korxonalarining aksari qismi Kogon shahrida joylashgan.

Tumanda 8 ta qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

Qishloq xo`jaligi. Kogon tumani xo`jaliklari paxtachilik, g`allachilik, bog`dorchilik, sabzavotchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Tumandagi qishloq xo`jalik ekinlari ekiladigan yerkarning 14,4 ming ga fermer xo`jaliklariga, 1,4 ming ga dehqon xo`jaliklariga, 0,1 ming ga qishloq jo`jalik korxonalariga tegishli. Barcha qishloq xo`jalik yerlari 175,6 ming ga bo`lib, shundan 15,8 ming ga sug`oriladigan yerdadir. Qishloq xo`jalikning yetakchi tarmog`i — paxtachilik. Jami ekin maydoni 16,1 ming ga, shu jumladan 8,4 ming ga yerga paxta, 5,6 ming ga yerga donli ekinlar, 0,5 ming gay erga sabzavot, 1,3 ming ga yerga ozuqabop ekinlar ekiladi, 448 ga yer bog`dan iborat.

Viloyatning donli ekinlar yalpi hosilida salmog`i 6,0 foizni (36 ming t) tashkil etadi. Donli ekinlarning o`rtacha hosildorligi gektariga 58,6 – 60,6 tonnaga teng. Qariyb 6 ming ga yer donli ekinlar ekiladi.

Tumanda 6 ming ga yer paxta ekilib, viloyatda yetishtiriladigan paxtaning 6 foizini beradi. 23 000 tonna paxta yetishtiriladi. Paxtaning o`rtacha hosildorligi gektariga 30 – 33 tonnani tashkil etadi.

Tumanda tokzorlarning maydoni 300 ga bo`lib, viloyat yalpi uzum hosilining 3 foizini beradi. Yalpi hosil 3000 tonna bo`lib, o`rtacha hosildorlik gektariga 130 sentnerdan kam.

Tumanda 700 ga yaqin bog`lar bo`lib, viloyat meva ekinlari yalpi hosilining bor-yo`g`i 2 foizini beradi. 4 ming tonnadan ortiq yiliga hosil olinadi, o`rtacha hosildorlik gektariga 190–230 sentner.

Tumanning viloyat sabzavot ekinlaridagi yalpi hosilidagi ulushi 4 foiz, 200 ga yerda sabzavot ekinlari ekiladi, 8 ming tonna hosil olinadi, o`rtacha hosildorlik gektariga 240–255 sentner.

Tumanning viloyat poliz ekinlaridagi yalpi hosilidagi ulushi 3 foiz, 100 ga yerda poliz ekinlari ekiladi, ming tonna hosil olinadi, o'rtacha hosildorlik gektariga 230 sentnerdan kam.

Tuman viloyatda yetishtiriladigan kartoshka yalpi hosilining ulushi 10 foizini beradi, 350 ga yerda kartoshka ekiladi, 13 ming tonna hosil olinadi, o'rtacha hosildorlik gektariga 295 sentner bo'lib, bu viloyatdagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

Tuman viloyatda go'sht yetishtirish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar qayd etgan tumanlardan biri bo'lib, tumanda 95 ming bosh yirik shoxli qoramol (go'sht uchun), 50 ming bosh sigir, 90 ming bosh qo'y va echkilar boqiladi.

Kogon tumanida 12 shirkat xo'jaligi, 1 jamoa, 4 paychilik, 244 fermer, 156 dehqon xo'jaligi bor. Tuman shirkat va shaxsiy xo'jaliklarida 26,3 ming qoramol, 27,4 ming qo'y va echki, 27,1 ming par-randa mavjud (2002). Asalari boqiladi.

Kogon tumanidan (Kogon shahri orqali) qo'shni mamlakatlarga boriladigan xalqaro temiryo'l o'tgan. Avtomobil transporti tumanni viloyat markazi Buxoro shahri hamda qo'shni tuman markazlari va boshqa shaharlar bilan bog'laydi. Avtomobil yo'llarining uzunligi 230 km dan ortiq. Avtomobil transportida yiliga 7 482 t yuk, 23 428 kishi tashiladi.

Tumanda 22 umumiy ta'lim maktabi, gimnaziya, 7 madaniyat uyi, 20 jamoat kutubxonasi, 28 sport inshooti, kasalxona (230 o'rinni), ambulatoriya, poliklinikalar mavjud.

Tumanda xalq hunarmandchiligining zardo'zlik, milliy liboslar tayyorlash, yog'och o'ymakorligi turalri rivojlangan.

Viloyatdagi arxitektura yodgorliklari 2 foizi, arxeologiya yodgorliklarining 1 foizimonal san'at yodgorliklarining 5 foizi tumanda joylashgan.

Tarixiy-me'moriy yodgorliklardan Kogon shahridagidagi tarixiy obidalar, Yangihayot qishlog`idagi Sayid Amir Kulol, Qasri Orifon (Naqshband) qishlog`idagi Bahouddin Naqshband me'moriy majmualari (14-asr) saqlangan.

Kogon shahri (1935 y.gacha Yangi Buxoro deb atalgan) Kogon tumanining ma'muriy markazi hamda temiryo'l tuguni. Kampirdevor qoldiqlari ichkarisidagi obod erda. Viloyat markazi Buxorodan 12 km janubi-sharqda, Buxoro—Qarshi

avtomobil yo'li yoqasida. Shahar 220 m balandlikdagi tekis erda joylashgan. Yanvarning o'rtacha harorati— $0,6^{\circ}$, iyulniki $29,6^{\circ}$. Yillik yog`in 125 mm. Xargush kanalidan suv oladi. Maydoni $14,7 \text{ km}^2$. Aholisi 53,3 ming kishi (2002), asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholisining aksari qismi temiryo'l transportida ishlaydi.

O'tgan asrlarda Kogon o'rnida shu nomda qishloq va yirik somon bozori bo'lган. Shahar nomining kelib chiqishi ham shu somon bozori bilan bog`liq degan taxminlar mavjud. Shundan kelib chiqib «kohkon» (koh fors. — somon), ya'ni somon koni atamasi haqiqatga yaqinroq. Keyinchalik bu nom o'zgarib Kogonga aylangan bo'lishi mumkin. Kogon eti-mologiyasining boshqa, ishonchsziz variantlari ham bor. Shahar sanoat tar-moqlarining shakllanishi Buxoro amirligi davrida mahalliy aholi kuchi bilan qurilgan (1888) Zakaspiy (Krasnovodsk) — Toshkent temiryo'lining Yangi Buxoro orqali o'tishi bilan bog`liq. 1920 yillargacha Kogonda yog` zavodi qurilgan, toshbosma (unda Narshaxiyning «Buxoro tarixi» va boshqa asarlar bosilgan), temiryo'l idorasi qoshida maktablar, paxta firmalari, turli savdo banklarining bo'limlari ochilgan. Keyingi davrda yangi sanoat korxonalari va madaniy ob'ektlar qurildi. Gazli —Kogon gaz quvuri o'tkazildi, 1959 yilda gaz kompressor stanstiyasi barpo qilindi.

Kogonda 20 dan ortiq yirik korxona faoliyat ko'rsatadi. Paxta tozalash, yog`, gips-ohak zavodlari, 2 avtokorxona, lokomotiv va vagon depolari va boshqalar mavjud. Kogon avtomobil yo'llari orqali viloyat markazi va boshqa shaharlar bilan bog`langan. Shaharda 10 umumiy ta'lim maktabi, listey, kasb-hunar maktabi, 2 madaniyat va istirohat bog`i, 2 klub, 3 madaniyat uyi, 9 jamoat kutubxonasi, stadion, 20 dan ortiq sport inshootlari bor. 2 kasalxona (har 10 ming aholiga 33,6 vrach, 88,1 tibbiy hamshira) mavjud.

Kogon tumanida 23 ta maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari bo'lib, unda 2323 bolalar tarbiyalanmoqda. 32 ta umumta'lim muassasalarida 16064 o'quvchi o'qiydi. Tumanda 4 ta kasb-hunar kolleji mavjud.

Viloyatda mavjud shifokorlarning 7 foizi tuman hududidagi 36 ta ambulatoriya-poliklinika yordamini ko'rsatuvchi shifokorlik muassasalari va 82

o’rinli tuman bosh kasalxonasida faoliyat ko’rsatishadi.

Tumanda 10 ta kutubxona mavjud, 1 ta muzey mavjud. 245,3 ming gazeta va jurnal bir yilda nashr etiladi.

Kogonda tarixiy-me’moriy yodgorliklardan Shohmasjid, Shohinajib (Zirobod) masjidlari, Buxoro amiri Abdulahadxoniiint 1894—1903 yillarda Evropa va Sharq uslublarini uyg`unlashtirib qurdirgan hashamatli saroyi (1947 yildan shahar temiryo’lchilari madaniyat saroyi) saqlanib qolgan.

ADABIYOTLAR.

1. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo’g’rofiyasi. T., “O’qituvchi”, 1994.
2. Ahmedov E.-O’zbekiston Respublikasi (o’zbek, ingliz tillarida), T., “O’zbekiston”, 1998.
3. Baratov P. O’zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent, O’qituvchi, 1996.
4. Hasanov I. O’zbekiston tabiiy geografiyasi (ma’ruzalar matni). Toshkent. O’zMU. 2000.
5. O’zbekiston geografik atlasi. Toshkent. 1998.

1-jadval. Kogon tumanidagi qishloq va mahalla fuqarolar yig`inlari to'g`risida ma'lumot.

| T/r | MFY nomi | Tuzilgan vakti | Axoli soni | Ulushi foizda |
|--------------------------------|-----------------|----------------|--------------|---------------|
| 1 | Ya-Xayot KFY | 1967 yil | 3306 | 5,1 |
| 2 | Sarayon KFY | 1972 yil | 2766 | 4,3 |
| 3 | Nurafshon KFY | 1968 yil | 3108 | 4,8 |
| 4 | Niyoz-xoji KFY | 1969 yil | 6025 | 9,3 |
| 5 | B.Nakshband KFY | 1965 yil | 4211 | 6,5 |
| 6 | Beklar KFY | 1966 yil | 2867 | 4,4 |
| 7 | Kogon KFY | 1961yil | 2573 | 4,0 |
| 8 | X-Yakshaba KFY | 1968 yil | 4325 | 6,6 |
| 9 | S-Poyon KFY | 1972 yil | 2747 | 4,2 |
| 10 | Navruz MFY | 2003 yil | 2198 | 3,4 |
| 11 | Konchilar MFY | 1992 yil | 5707 | 8,8 |
| 12 | Suxor MFY | 2003 yil | 2450 | 3,8 |
| 13 | Ubachuli MFY | 2003 yil | 3713 | 5,7 |
| 14 | Tunirok MFY | 2003 yil | 3106 | 4,8 |
| 15 | Sorgun MFY | 2003 yil | 3130 | 4,8 |
| 16 | Tutkunda MFY | 2002 yil | 4031 | 6,2 |
| 17 | Mutakillik | 2005 yil | 1837 | 2,8 |
| 18 | Istiklol MFY | 2005 yil | 2845 | 4,4 |
| 19 | Xukumatobod MFY | 2005 yil | 2043 | 3,1 |
| 20 | Choloki MFY | 2007 yil | 1996 | 3,0 |
| Tuman bo'yicha jami: 19 | | - | 66100 | 100 |

2-jadval. Kogon tumani aholisining QFY va MFY bo'yicha taqsimlanishi.

| № | xududning nomi | Xudud xajmi, ga | Axoli soni | shundan | | | millati | | | | | Boshka millatlar | |
|----|-------------------|-----------------|------------|----------|---------|--------------|---------|------|-------|-------|----------|------------------|------|
| | | | | erkaklar | ayollar | 16 yoshgacha | uzbek | rus | Kozok | Tojik | totorlar | | |
| 1. | 2. | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 |
| | JAMI | 27747 | 59966 | 17886 | 18394 | 23687 | 38858 | 9475 | 336 | 3958 | 2680 | 4659 | 1911 |
| 1 | Beklar KFY | 1600 | 2456 | 733 | 753 | 970 | 1591 | 388 | 14 | 162 | 110 | 191 | 67 |
| 2 | Istikbol KFY | 1158 | 2513 | 750 | 771 | 993 | 1628 | 397 | 14 | 166 | 112 | 195 | 97 |
| 3 | Uba-chuli KFY | 1543 | 3657 | 1091 | 1122 | 1445 | 2370 | 578 | 20 | 241 | 163 | 284 | 93 |
| 4 | Sarayon KFY | 1275 | 2548 | 760 | 782 | 1006 | 1651 | 403 | 14 | 168 | 114 | 198 | 62 |
| 5 | Ya-Xayot KFY | 1320 | 2001 | 597 | 614 | 790 | 1297 | 316 | 11 | 132 | 89 | 155 | 59 |
| 6 | Mustakilli k MFY | 980 | 1669 | 498 | 512 | 659 | 1082 | 264 | 9 | 110 | 75 | 130 | 37 |
| 7 | Konchilar MFY | 1826 | 4453 | 1328 | 1366 | 1759 | 2886 | 704 | 25 | 294 | 199 | 346 | 228 |
| 8 | Niyoziy-Xoji KFY | 2645 | 7324 | 2184 | 2247 | 2893 | 4746 | 1157 | 41 | 483 | 327 | 569 | 270 |
| 9 | Siyoziy-Poyon KFY | 1750 | 2519 | 751 | 773 | 995 | 1632 | 398 | 14 | 166 | 113 | 196 | 177 |
| 10 | Navruz MFY | 920 | 1978 | 590 | 607 | 781 | 1282 | 313 | 11 | 131 | 88 | 154 | 135 |
| 11 | Kogon KFY | 1120 | 2341 | 698 | 718 | 925 | 1517 | 370 | 13 | 155 | 105 | 182 | 62 |
| 12 | Sorgun MFY | 1485 | 3011 | 898 | 924 | 1189 | 1951 | 476 | 17 | 199 | 135 | 234 | 96 |
| 13 | X-Yakshaba KFY | 1800 | 4078 | 1216 | 1251 | 1611 | 2643 | 644 | 23 | 269 | 182 | 317 | 118 |
| 14 | Tunirok MFY | 865 | 2841 | 847 | 871 | 1122 | 1841 | 449 | 16 | 188 | 127 | 221 | 84 |
| 15 | Tutikunda MFY | 1740 | 3549 | 1059 | 1089 | 1402 | 2300 | 561 | 20 | 234 | 159 | 276 | 77 |
| 16 | Nurafshon KFY | 1465 | 4048 | 1207 | 1242 | 1599 | 2623 | 640 | 23 | 267 | 181 | 315 | 80 |
| 17 | Suxor MFY | 865 | 1275 | 380 | 391 | 504 | 826 | 201 | 7 | 84 | 57 | 99 | 31 |
| 18 | B.Nakshband KFY | 1425 | 3452 | 1030 | 1059 | 1364 | 2237 | 545 | 19 | 228 | 154 | 268 | 79 |
| 19 | Urta-chul MFY | 340 | 517 | 154 | 159 | 204 | 335 | 82 | 3 | 34 | 23 | 40 | 20 |
| 20 | Xukumato bod MFY | 975 | 1829 | 546 | 561 | 722 | 1185 | 289 | 10 | 121 | 82 | 142 | 29 |

| | | | | | | | | | | | | | |
|----|----------------|-----|------|-----|-----|-----|------|-----|----|-----|----|-----|----|
| 21 | Choloki MFY | 650 | 1907 | 569 | 585 | 753 | 1236 | 301 | 11 | 126 | 85 | 148 | 31 |
|----|----------------|-----|------|-----|-----|-----|------|-----|----|-----|----|-----|----|